



**O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi  
"Yoshlar innovatsiya markazi" davlat unitar korxonasi**

**"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini  
mustahkamlash" yiliga bag'ishlangan "MINTAQADA  
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH:  
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR" mavzusidagi  
respublika ilmiy-amaliy anjumani**

## **MATERIALLARI TO'PLAMI**

**2021 yil 19 noyabr**

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Innovatsion rivojlanish vazirligi**  
**“Yoshlar innovatsiya markazi” DUK**

**“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini  
mustahkamlash” yiliga bag‘ishlangan**  
**“MINTAQADA INNOVATSION FAOLIYATNI  
RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani  
**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**2021 yil 19 noyabr**

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2021 yil 02 iyunda №02-08/3295-son bilan tasdiqlangan “Yoshlar innovatsiya markazi” DUKning 2021 yilgi “Ish rejasi”ga muvofiq hamda “Yoshlar innovatsiya markazi”ning 2021 yil 15 oktyabrdagi №10-IL-sonli buyrug‘i asosida o‘tkazildi.

**Yoshlar innovatsiya markazi DUKda “Mintaqada innovatsion faoliyatni rivojlantirish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanining tashkiliy qo‘mitasi va tahrir hay‘ati tarkibi**

**Anjuman raisi:**

- 1 **Davlatov S.D.** Yoshlar innovatsiya markazi DUK direktori

**Rais o‘rinbosari:**

- 2 **Normatova Sh.A.** Yoshlar innovatsiya markazi DUK direktorining umumiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, PhD

**A‘zolar:**

- 3 **Mamajonov A.A.** OTMlararo ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi mudiri
- 4 **Raxmonberdiyev I.X.** axborot-tahlil markazi bo‘limi mudiri
- 5 **Umirzaqov M.K.** kovorking markazi mudiri
- 6 **G‘ulomov U.Yu.** bosh hisobchi
- 7 **Odiljonov M.K.** axborot-tahlil markazi yetakchi mutaxassisi
- 8 **Yo‘ldasheva G.A.** OTMlararo ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi mutaxassisi

foydalanishimiz mumkin. Bu yo‘llar orqali yurtimizda ham IT texnologiyalarini, ham arxeologiya fanini va turizm sohalarini rivojlantirishga erishamiz. Xitoy metodikasi shunday xarakterga ega. Xitoyda arxeologik obyekt aniqlansa, avvalo uning hududi aniqlanadi. Va u yerda dastlabki arxeologik izlanishlar olib boriladi. Bundan so‘ng esa arxeologik hududning kattaligiga qarab yopiq muzeyga aylantiriladi. Yuqorida aytib o‘tganimizday, 3D Max va grafik dizayn yordamida dastlabki ko‘rinishlari va maketlar tiklanadi. Shu ko‘rinishlar asosida restavratsiya ishlari amalga oshiriladi. Shuning uchun Xitoy davlati ochiq osmon ostidagi muzeylar va arxeologik yodgorliklar soni bo‘yicha butun dunyodagi yetakchi davlat hisoblanadi. Mana shu omillar tufayli Xitoyda turizm sohasi juda ham rivojlangan. Xitoy jahonda eng ko‘p tashrif buyuruvchi sayyohlar reytinggida kuchli 10 ta davlat qatorida turadi. Biz ham yuqoridagi usullar, dasturlarni O‘zbekistonda joriy eta olsak, turizm sohasi va arxeologiya o‘rtasida integratsiya jarayoni ancha chuqur tarzda rivojlanadi.

## **OSONLIK BILAN MOBIL ILOVALAR YARATISH**

**To‘rayev Mardonjon Farmonovich**

**Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasida o‘qituvchisi**

Ko‘pchilik hozirda mobil aloqa vositasidan foydalanib, qariyb barcha ishlarini telefon yordamida bajaryapti, shu bilan birga bo‘sh vaqtini ham u bilan birga o‘tkazyapti. Misol uchun, aloqa, muloqot, internet, ilovalar, o‘yinlar, video ko‘rish va boshqalar. Shuning uchun allaqachon kompyuter dasturlaridan ham ko‘ra mobil ilovalar yaratishga e‘tiborni ko‘proq qaratish vaqti kelgandir. Talabalarning ko‘pchiligida notebook bo‘lmasa ham albatta smartfoni bo‘ladi. Maktab o‘quvchilari ham imkon bo‘lsa smartfon bilan bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishga harakat qiladi. Yoshlarni osonlik bilan har xil ilovalar yaratishga yo‘naltirish, qiziqtirish orqali, smartfon bilan behuda vaqt o‘tkazishini foydali ishga o‘girish, almashtirish mumkin. Shunday ekan o‘quv reja, fan dasturlarni tuzishda bularni e‘tiborga olib, yetishtirilayotgan kadrlarga ham jamiyat, bozor ehtiyojidan kelib chiqib ta‘lim berish zarurdir.

Smartfonlar uchun ilovalar yaratuvchi ko‘plab dasturlar bor. Hozirda qariyb barcha dasturlash tillari orqali buni amalga oshirish mumkin. Android operatsion tizimlar uchun eng asosiy ilova yaratuvchi dastur android studioni oladigan bo‘lsak, uni juda katta (20-30 gb) hajmdagi ishlovchi elementlarini kompyuterda o‘rnatishimiz kerak bo‘ladi. Shuningdek, yaratilayotgan ilovani smartfonga qanchalik mos kelishini bir necha marotaba tekshirib ko‘rish ehtiyoji vujudga kelishi mumkin. Shunda kompyuterdan ko‘ra smartfonning o‘zida ilovani sinab ko‘rish yaxshiroqdir. Umuman bu va boshqa dasturlash tillari orqali ilova yaratganda, o‘sha dasturlash tilini yaxshi bilib, kod yoza olish talab etiladi. Shunday murakkab ishlardan foydalanuvchilarni qolaversa dasturchilarni xalos etish, ularga yordam berish maqsadida dasturlash tillari va muhitlari ham ko‘payib, o‘zlarini rivojlantirib borishmoqda. Dasturchilar ham dasturlash tillari va ularda qo‘shilgan har bir imkoniyatlardan unumli foydalanib, o‘z vaqtlarini tejashga harakat qilishadi. Oddiy misol, obyektga mo‘ljallangan dasturlash tillarida biror obyekt, masalan buttonni dastur oynasiga shunday ko‘chirib qo‘yamiz bo‘ldi, holbuki, bu obyekt (Paskal dasturlash tili yordamida) yaratish uchun ko‘plab kod yozishimiz kerak bo‘lard. Lekin hech kim bunday kod yordamida obyektlarni hosil qilib vaqtini ketkazib o‘tirmaydi va albatta bu tabiiy hol, rivojlanishning bir bosqichidir. Xuddi shunday, keyingi yillarda foydalanuvchi va dasturchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida tayyor obyekt, komponent va dastur qoliplariga ega ilova yaratuvchi muhitlar yaratilmoqda, ulardan biri sketchware ilovasidir. Sketchware bu mobil telefon, qurilmalardan foydalanib, hech qanday kodlarsiz, biror dasturlash tilini ham bilmasdan, tezgina android operatsion tizimida ishlovchi ilova tuzish imkonini beradigan dasturdir.

Sketchware afzalliklari:

- ✓ telefonning o‘zida telefon uchun dastur-ilova, apk fayllarni tuzish va o‘rnatish;

- ✓ internetsiz ishlashi, ayrim shunday dastur, muhitlar borki, ular internet, web sahifalar yordamidagina ishlaydi, ro'yxatdan o'tish va boshqa har xil talablar qo'yadi;
- ✓ obyektga mo'ljallanganligi, tayyor button, edittext, textview, mapview kabi ko'plab obyektlarni ilovaga qiyinchiliksiz ko'chirib joylashtirish; obyektlarni u yerdan bu yerga surish va hokazo;
- ✓ tayyor camera, wi-fi, sound, media player kabi ko'plab komponentalardan foydalanish;
- ✓ android 4.4 va yuqori versiyalar uchun;
- ✓ grafik va audio fayllarni qo'shish;
- ✓ proyekt, manba kodini ko'rish imkoniyati (Java va Xml);
- ✓ dastur, kod yozib o'tirmasdan, tayyor dastur qoliplaridan foydalanib, ularni dasturga ko'chirib o'tkazish kabi ko'plab imkoniyatlarni beradi.

## **TURIZM SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING O'RNI**

**Vafayev M.A., Musinova N.R., Muxiddinov N.M.**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali**

Hozirgi kunda turizm jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib bormoqda, yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo'yicha ikkita yirik tarmoq-neft qazib olish va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarga ega. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekiston iqtisodiy barqaror davlatlar qatoriga kirib, nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega, xalqi esa mehmondo'stligi bilan ajralib turadi

Yangi axborot texnologiyalar va samarali aloqalar turizmning shiddat bilan rivojlanishiga hamda vertikal, gorizantal va diagonal integratsiyani vujudga keltirishda xizmat qiladi, shu bois tashqi tahdidlar ham kuchayib boradi. Turizm sohasi – bu axborot xavfsizligini ta'minlashda tahdidlar juda ham ta'sirchan hisoblanadi. Chunki unda mavjud axborotlar mijozlar haqida konfidentsial ma'lumotlarni olishga imkon berishi mumkin. Demak, turistik firmalarining axborot xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish uchun birinchi navbatda shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash normalariga amal qilish kerak. Bulardan tashqari, turizm-bu internet to'lovlar, mehmonxona nomerlarini bronlash, chiptalarni bandlash kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Turizm kompaniyalarida axborot xavfsizligini ta'minlash, boshqa kompaniyalarga ham xos bo'lsada, bunda mavjud ma'lumotlar ushbu biznesning asosiy resursi hisoblanadi.

Turizmning hozirgi kundagi jamiyatdagi ahamiyati global xususiyatga ega bo'lib, har bir shaxsning sayohat qilish huquqini belgilab beradi. Shu bilan birga turizm bevosita ijtimoiy-iqtisodiy jarayon doirasida namoyon bo'ladi, shu bois turizmni boshqarish murakkab masala hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda turizmda xavfsizlikni ta'minlash – bu turizm sohasi bilan bog'liq barcha faoliyat turlarini har xil tahdidlardan himoyalash vositalari va usullari majmuasidir. Bunda xavfsizlikni ta'minlashda asosiy tamoyil sifatida tizimli yondashuv qabul qilinishi zarur. Olimlar tomonidan o'rganilgan turizmning jihatlari asosan turizmni rivojlantirish turlari bilan bog'liq bo'lib, axborot xavfsizligi unda faqatgina o'z-o'zidan mavjud hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda Internetning keskin rivojlanishi natijasida turizmning axborot tizimiga, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan tahdidlar oshib bormoqda.

Shu bilan birga turizm xavfsizligini konseptual yo'nalishlari ajratib olingan, bular:

- 1) turizm xavfsizligiga tahdidlar tahlili;
- 2) turizm xavfsizligi holatining turistik biznesga ta'siri;
- 3) turizm industriyasi subyektlariga nisbatan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar.

	AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING ARXELOGIYADAGI O'RNI	
95	To'rayev Mardonjon Farmonovich - Buxoro davlat universiteti	105
	OSONLIK BILAN MOBIL ILOVALAR YARATISH	
96	Vafayev M.A., Musinova N.R., Muxiddinov N.M. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali	106
	TURIZM SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING O'RNI	
97	Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyorovna - Ferghana state university	107
	MULTIMEDIA TECHNOLOGIES OF TEACHING PSYCHOLOGY	
98	Yunusov Mirsaid Xudayarovich - Jizzax davlat pedagogika instituti	108
	ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING INNOVATSION KO'RGAZMALI USULLARI	
99	Ачилов С.С., Разокова М.Х. - Самарканский филиал ТАТУ им.Мухаммада ал-Хорезми, Самаркандский государственный университет	110
	ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СФЕРЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА	
100	Касымова С.Х., Салимова Х.Р. - 70-я общеобразовательная школа Кашкадарьинской области, Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми	111
	ОБЛАЧЕНИЕ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОМЕЖУТОЧНЫХ КОНТРОЛЬНЫХ РАБОТ СТУДЕНТОВ, ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННО- ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ	
101	Самиева Ш.Х., Махмудова С.Н. - Бухарский инженерно-технологический институт	112
	МОДЕЛИРОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ ОДЕЖДЫ ПО ТЕХНОЛОГИИ 3Д	
<b>4-sektsiya. IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHADA INNOVASIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b>		
102	Badalbayeva M.Y., Rajabov D.D. - Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi	114
	TEXNOLOGIK JARAYONLARDA HAVO TARKIBIDAGI CHANGLARNING ZARARLI TA'SIRINI KAMAYTIRISH	
103	Batirova Nilufar Sherkulovna - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	117
	INNOVATSION IQTISODIYOT SHAKLLANISHI SHAROITIDA MINTAQA SANOATINI RIVOJLANISHI	